INTELLEKTUAL MULKDA SHARTNOMAVIY MUNOSABATLARNI HIMOYA QILISH VA NIZOLARNI HAL ETISHDA MEDIATSIYA INSTITUTI

Rayimov Shohzod Ibrohim o‘g‘li,
Mirzo Ulug‘bek nomidagi
O‘zbekiston Milliy universiteti biznes
huquqi yo‘nalishi magistri
e-mail: shohzodrayimov01@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.22994317

Annotatsiya:
Mazkur maqola intellektual mulk sohasidagi shartnomaviy munosabatlarni huquqiy jihatdan himoya qilish va yuzaga keladigan nizolarni sudgacha bo‘lgan tartibda hal etishda mediatsiya institutining o‘rnini o‘rganishga bag‘ishlangan. Maqolada intellektual mulk obyektlaridan foydalanish, Mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish to‘g‘risidagi kelishuv tuzish tartibi, shuningdek, mediatsiya vositasida nizolarni tezkor, tejamkor va konfidensial hal qilish mexanizmlari tahlil qilingan. Shuningdek, amaldagi qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan ilmiy takliflar berilgan.
Kalit so‘zlar: intellektual mulk, shartnoma munosabatlari, mediatsiya, nizolarni hal etish, mediativ kelishuv, mualliflik huquqi, konfidensiallik, sudgacha hal etish.

Аннотация
Данная статья посвящена исследованию роли института медиации в правовой защите договорных отношений в сфере интеллектуальной собственности, а также во внесудебном урегулировании возникающих споров. В статье анализируются вопросы использования объектов интеллектуальной собственности, порядок заключения соглашения о проведении процедуры медиации, а также механизмы оперативного, экономичного и конфиденциального разрешения споров посредством медиации. Кроме того, разработаны научно обоснованные предложения по совершенствованию действующего законодательства.
Ключевые слова: интеллектуальная собственность, договорные отношения, медиация, разрешение споров, медиативное соглашение, авторское право, конфиденциальность, внесудебное урегулирование.

Abstract
This article is devoted to examining the role of mediation in the legal protection of contractual relations in the field of intellectual property and in the pre-trial settlement of disputes arising in this area. The article analyzes the use of intellectual property objects, the procedure for concluding an agreement on conducting mediation, as well as mechanisms for resolving disputes through mediation in a prompt, cost-effective, and confidential manner. In addition, scientifically substantiated proposals for improving the current legislation are presented.
Keywords: intellectual property, contractual relations, mediation, dispute resolution, mediation agreement, copyright, confidentiality, pre-trial settlement.

Kirish:

Intellektual mulk sohasida shartnomaviy munosabatlarni huquqiy himoya qilish mexanizmi huquq egasi va intellektual mulk obyektidan foydalanuvchi shaxslarning qonuniy manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan huquqiy vositalar majmuini tashkil etadi. Mazkur mexanizmning asosiy vazifasi shartnoma taraflari tomonidan o'z zimmasiga olingan majburiyatlarning lozim darajada bajarilishini ta'minlash, huquqlardan ruxsatsiz foydalanishning oldini olish va huquq buzilgan taqdirda samarali tiklovchi choralarni qo'llashdan iborat.

Intellektual mulk, xususan tovar belgilari (brendlar) kompaniyalarga mashhur bo'lishga va daromadlarini oshirishga yordam beradi. Masalan, 2026-yilgi Brand Finance Global 500 reytingida Apple $607,6 mlrd bilan 1-o'rinda, Microsoft $565,2 mlrd bilan 2-o'rinda, Google $433,1 mlrd bilan 3-o'rinda va Amazon $369,9 mlrd bilan 4-o'rinda turibdi[1]. Shu sababli intellektual mulkni e'tirof etish va unga bo'lgan huquqlarni himoya qilish mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishga va innovatsion yondashuvlarni qo'llashga imkon beradi.

"Nizolarni sudsiz hal qilishning (Arbitration and dispute resolution (ADR)) qanday usullari mavjudligi va bu jarayon bilan kimlar shug'ullanishi haqida to'xtaladigan bo'lsak, shaxslar o'rtasidagi nizolarni muzokara yo'li bilan hal etishda shaxslarning o'zlari yoki uchinchi betaraf shaxs ishtirokida hal qilishlari mumkin. Nizolarni alternativ hal qilish sud zalidan tashqaridagi nizolarni hal qilishning har qanday vositasiga tegishli. ADR, odatda, erta neytral baholash, muzokaralar, kelishuv, vositachilik va arbitrajni o'z ichiga oladi. Sudlar soni ko'payib borishi, sud xarajatlarining oshishi va vaqtning kechikishi natijasida ko'p davlatlar ADR dasturlari bilan tajriba o'tkazishni boshladilar. Konfliktni kuch ishlatish orqali, sud orqali va muzokaralar orqali hal qilsa bo'ladi. Lekin kuch ishlatish orqali nizoni hal qilishdan hech kim foyda ko'rmasligi barchamizga ma'lum, aksincha, vaziyat keskinlashadi"[2].

Intellektual mulk sohasida shartnomaviy munosabatlarni huquqiy himoya qilish mexanizmi sifatida quyidagilar qo'llaniladi:

1. Intellektual mulk sohasidagi nizolarni hal etishda mediatsiya instituti;
2. Intellektual mulk sohasidagi nizolarni hal etishda arbitraj instituti;
3. Intellektual mulk sohasidagi nizolarni hal etishda milliy sudlar;
4. Butunjahon Intellektual Mulk Tashkilotining nizolarni muqobil hal etish qoidalari va uni qo'llash sohalari.

Mediatsiya (lotincha "mediare") – vositachilik qilish– ikki yoki bir necha taraflarning o'zaro maqbul qarorga erishish maqsadida ixtiyoriy roziligi asosida ikki tomonlama foydali hal qilishlaridan manfaatdor bo'lgan uchinchi /xolis/ taraf (mediator) ishtirokida yordamida yuzaga kelgan nizolarni muqobil hal qilish turlaridan biri hisoblanadi.

Mediatsiya ham sud ishlariga norasmiy alternativ hisoblanadi. Mediatorlar – bu muzokaralarda o'qitilgan va qarama-qarshi tomonlarni birlashtirgan hamda ikkala tomon ham

[1] https://static.brandirectory.com/reports/brand-finance-global-500-2026-preview.pdf?utm_source.
[2] **M.B.Bahramova. Intellektual mulk sohasidagi nizolarni hal etish.** O'quv qo'llanma. – T.:TDYU nashriyoti, 2022. – 3 b.

qabul qilgan yoki rad etgan kelishuv yoki kelishuvni ishlab chiqishga harakat qiladigan odamlar. Mediatsiya ixtiyoriydir[3].

Miloddan avvalgi VI asrda Rim huquqida Yustinian kodeksidan boshlab, bahs-munozaralarni hal qilish uchun vositachilik (mediatsiya) tan olingan. Vavilon, Qadimiy Gretsiya va Qadimiy Rimda turli kelishmovchiliklarga yechim topishda mediatsiyani qo‘llash amaliyotidan keng foydalanilgan bo‘lib, mediatsiya tartib-taomili, asosan savdoda qo‘llanilgan[4].

Nizolarni alternativ hal etish (ADR) protsedurasi intellektual mulk bilan bog‘liq nizolarni hal qilishda bir qator afzalliklarni taqdim etadi. Xususan, mediatsiya o‘zaro munosabatlarni saqlab qolish yoki mustahkamlashga alohida e’tibor beradigan, nizolarni hal qilish jarayonini nazorat qilishni, maxfiylikni qadrlaydigan yoki o‘z obro‘siga putur yetkazmasdan tezroq hal qilishni istagan tomonlar uchun jozibador tanlovdir[5].

Nizolarning murakkabligi va ularning ko‘payib borishi ko‘plab sharhlovchilarni vositachilikdan foydalanishni tavsiya qilishga undadi, intellektual mulk bo‘yicha nizolarni hal qilish uchun sud tizimining o‘rniga alternativ nizolarni hal qilish (ADR) jarayoni har tomonlama qulay. Aslida, hozirda Mediatsiya orqali hal qilinadigan intellectual mulk bilan bog‘liq nizolarning aniq sonini aniqlash qiyin, chunki na Mediatsiya jarayoni, na uning natijalari hech qanday tarzda Mediatsiya yoki arbitrajga o‘tmaydi. Intellektual mulk tashkilotining Arbitraj va vositachilik markazi (BIMT markazi) manfaatdor tomonlar uchun kelgusidagi aniq nizolarning maxfiyligini ta’minlaydi[6].

Mediatsiya jarayoni quyidagi hollarda o‘tkazilishi mumkin:

- har bir taraf bir-biri bilan kelishishga o‘zini tayyor deb hisoblasa va mediatsiya jarayonini ixtiyoriy tanlagan bo‘lsa;

- taraflar nizoni oshkora bo‘lishini istamagan holda jarayon maxfiy o‘tishining tarafdori bo‘lsa;

- taraflar bir-birlari bilan bo‘lgan do‘stona munosabatlarni saqlab qolish istagida bo‘lsa.

Jjismoniy va yuridik shaxslar mediatsiya ishtirokchilari bo‘lib, taraflar mediatsiyada shaxsan yoki o‘z vakili orqali ishtirok etishlari mumkin. Mediatsiya ikki va undan ortiq taraflar o‘rtasida bo‘lishi va bir yoki bir nechta mediator tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

Nizolashuvchi taraflar va mediator mediatsiya jarayoni ishtirokchilari bo‘lib hisoblanadi. Mediatorga taraflardan biri murojaat etgan taqdirda, mediator uning iltimosiga ko‘ra ikkinchi tarafga nizoni mediatsiya yo‘li orqali hal qilish taklifini yuboradi va mediator murojaat etgan tarafdan ikkinchi taraf bilan bog‘lanish uchun manzil ma’lumotlarni oladi. Mediator ikkinchi taraf bilan bevosita uchrashib yoki telekommunikatsiya aloqa vositalari orqali mavjud holatni muhokama qilib olishlari mumkin.

---

[3] Масадиков Ш.М. Медиация-альтернативный способ разрешения гражданско-правовых споров. Учебное пособие. – Т., 2010. – С.12-13.

[4] Шамликашвили Ц.А. Медиация в вопросах и ответах. — М.: Издательство ООО «Межрегиональный центр управленческого и политического консультирования», 2017. — С.95.

[5] Якубова Д.Ш. Организационно-правовые вопросы деятельности медиаторов // Материалы Международной научнопрактической конференции «Наука в современном мире: вопросы теории и практики», Болгария: Издателска Къща «СОРоС», 2020. – 324 с. С. 151-154.

[6] Здрок, О. Н. Медиация : пособие / О. Н. Здрок. – Минск : Четыре четверти, 2018. – С.40.

Nizolashuvchi taraflarning nizoni mediatsiya orqali hal qilishdan ko‘zlangan maqsad shundaki, mediator nizoni qonun doirasida, tomonlarning huquq va manfaatlariga daxl qilmagan holda hal etishida ko‘rinadi. Agar Nizolashuvchi taraflar intellektual mulk sohasida shartnomaviy munosabatlar bilan bog‘liq nizolarni hal etishga o‘zlari kirishgan taqdirda bir tarafning ikkinchi tarafga nisbatan ishonchsizligi, huquq va manfaatlarining qo‘pol ravishda buzilishlariga olib kelishi mumkin. Shuning uchun ham mediator tomonlarning huquq-manfaatlarini tushuntirgan holda nizoni maxfiy tarzda hal etadi va taraflarning tadbirkorlik faoliyatidagi do‘stona munosabatlarini saqlab qoladi.

Mediator ham xuddi advokat singari ishning natijasi yuzasidan aniq xulosa berolmaydi. Chunki taraflar har doim ham mediativ muzokaralarda kelishuvga erisholmasliklari mumkin.

Tadqiqotchi olim Sh.Masadikovning fikricha “Mediatsiya jarayonini o‘tkazish haqidagi xabarni ikkinchi tarafga yetkazish uchun mediator jiddiy tayyorgarlik ko‘rishi kerak. Chunki bunday ma’lumotdan bexabar taraf bu taklifga qanday munosabat bildirishi noma’lum”[7].

Shuning uchun mediatorning nutqi juda ta’sirchan va ishonarli bo‘lishi, tegishli dalillarni keltirishi hamda mediatsiya orqali nizoni tinch yo‘l bilan hal qilish va kelishuvga erishish mumkinligi to‘g‘risida tarafda qiziqish uyg‘otishi kerak. Taraflar mediatsiya jarayonini o‘tkazishga rozi bo‘lganidan so‘nggina, u bilan uchrashib nizoga doir barcha ma’lumotlarni olish zarur.

Nizo predmeti har tomonlama to‘liq o‘rganilmagunga qadar mediatsiya jarayonini boshlash mumkin emas.

Mediatsiya tartib-taomili – taraflar belgilagan joyda, mediatorning xonasida yoki boshqa joyda ham o‘tkazilishi mumkin.

Mediator taraflardan nizo bo‘yicha batafsilroq ma’lumotlarni olish uchun ko‘proq savollar berishi kerak. Shunga ahamiyat berish lozimki, savollar o‘z o‘rnida, verbal va noverbal aloqa usulini qo‘llagan holda berilishi maqsadga muvofiq, aks holda taraflar buni jiddiy qabul qilmasliklari mumkin[8].

Savollar taraflarni ularning hayoliga ilgari kelmagan narsalar haqida o‘ylashiga va oz bo‘lsa-da konfliktga nisbatan nuqtayi nazarlari va munosabatlarini o‘zgartirishga yordam beradi.

Shuningdek, ushbu bosqichda mediator taraflardan nizodagi muammoviy masalalardan qaysi biri bilan kelisha olishlari mumkinligini yoki kelishishlari qiyin bo‘lganlarini aniqlashi foydali. Chunki mediatsiya jarayonida mediator aynan qaysi masalalarga qo‘proq ahamiyat berishi kerakligini va qaysi masalalar nizo predmetining asosiylari ekanligini tushunib olishiga yordam beradi. Bunday yondashuv, taraflarni mediatsiyada hamkorlik qilishi va kelishuvga erishishi uchun yo‘nalishlarni belgilashga va muloqotni to‘g‘ri olib borishga imkon beradi[9].

---

[7] Масадиков Ш.М. Медиация-альтернативный способ разрешения гражданско-правовых споров. Учебное пособие. - Т., 2010. В.12-13.

[8] Якубова Д.Ш. Медиация – как альтернативный метод разрешения споров. Коммуникативные методы в медиации. //Научный мультитематический журнал «Научные исследования XXI века» № 1 (3) 2020 г. - 436
с. С. 291-294.

[9] Yakubova D.Sh. Nizolarni hal qilishning muqobil usullari – mediatsiya: nazariya va amaliyot // “O‘zbekistonda sudlar faoliyati va sud hujjatlari ijrosi: uyg‘unligi, bugungi holati va istiqbollari” mavzusidagi respublika ilmiyamaliy onlayn konferensiyasi materiallari to‘plami, Toshkent, TDYU nashriyoti, 2020. – 245 b. B.73-77.

Mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish to‘g‘risidagi kelishuvda quyidagi ma’lumotlar ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak:

taraflar haqida;
nizo predmeti to‘g‘risida;
uni o‘tkazish tartibi to‘g‘risida;
mediator va taraflarning majburiyatlari haqida;
majburiyatlarni bajarish shartlari va muddatlari haqida;
mediatsiya bilan bog‘liq xarajatlar haqida;
o‘tkazish sanasi va joyi to‘g‘risida;
jarayonni o‘tkazish muddati haqida;
qaysi tilda o‘tkazilishi haqida.

Mediatsiya jarayoni bir nechta bosqichlardan iborat:

Nizoni o‘rganish;
Mediatorning kirish so‘zi;
Taraflarning nizo bo‘yicha chiqishlari;
Muzokarali masalalarni muhokama qilish;
Taraflarning har biri bilan alohida suhbat(kokus) o‘tkazish;
Xulosa qilish;
Takliflarni ishlab chiqish;
Kelishuv bitimini imzolash va mediatsiya jarayonidan chiqish.

Bundan tashqari, mediator, kelishuv majburiyatlarini bajarmaslik oqibatlarini taraflar bilan muhokama qilishi kerak.

Mediativ kelishuv taraflar uchun majburiy kuchga ega bo‘lib, ushbu kelishuv unda nazarda tutilgan tartibda hamda muddatlarda taraflar tomonidan ixtiyoriy ravishda bajariladi. Agar kelishuv bitimi bo‘yicha majburiyatlar bajarilmasa, taraflar o‘z huquqlarini himoya qilish uchun sudga murojaat etishi mumkinligi tushuntiriladi.

Fuqarolik huquqiy munosabatlardan, shu jumladan, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish munosabati bilan kelib chiqadigan nizolarga, shuningdek, yakka mehnat nizolariga va oilaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni samarali hal qilishda mediatsiyaning ahamiyati haqida qisqacha tushuncha berildi. Haqiqatdan ham, mediatsiya orqali nizoda bo‘lgan taraflarni yarashtirishning to‘liq imkoniyati bo‘lmasa ham, ammo nizoga sabab bo‘lgan muammolarning yechimini topishga va aynan shu masalada kelishtirishga hamda ularning munosabatlarini saqlab qolishga yordam beradi. Muhimi, bunday kelishuvga erishish uchun taraflarning vaqti va mablag‘lari tejaladi[10].

O‘zbekiston Respublikasining 03.07.2018 yildagi “Mediatsiya to‘g‘risida” O‘RQ-482-son Qonunining 26-moddasida[11] Mediatsiyaga taalluqli axborotning maxfiyligi ta’minlangan bo‘lib, taraflar, mediator, shuningdek mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirishda hozir bo‘lgan boshqa shaxslar muhokamaning mediatsiya predmeti bo‘lgan nizo bilan bog‘liq bo‘lgan-bo‘lmaganligidan qat’i nazar, agar taraflar boshqacha qoida haqida kelishib olmagan bo‘lsa, muhokama jarayonida taraflardan birining mediatsiyani qo‘llash to‘g‘risidagi taklifi haqidagi, xuddi shuningdek taraflardan biri uni amalga oshirishda ishtirok etishga tayyor

[10] Здрок, О. Н. Медиация : пособие / О. Н. Здрок. – Минск : Четыре четверти, 2018. – С.54.
[11] O‘zbekiston Respublikasining 03.07.2018 yildagi “Mediatsiya to‘g‘risida” O‘RQ-482-son Qonuni. https://lex.uz/docs/-3805227

ekanligi to‘g‘risidagi, nizoni hal etish ehtimoli xususida taraflardan biri bildirgan fikrlar yoki takliflar haqidagi, mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish jarayonida taraflardan biri tomonidan bildirilgan e’tiroflar to‘g‘risidagi, taraflardan biri mediatorning yoki ikkinchi tarafning nizoni hal etish haqidagi taklifini qabul qilishga tayyorligi to‘g‘risidagi axborotni havola qilishga haqli emas.

Intellektual mulkda shartnomaviy munosabatlarni himoya qilish va nizolarni hal etishda mediatsiya institutini rivojlantirish hamda uni intellektual mulkda sohasidagi shartnomaviy munosabatlarga keng tadbiq qilish maqsadida quyidagi takliflar ilgari suramiz:

1. **Intellektual mulk shartnomalarida mediatsiya shartini nazarda tutishning huquqiy mexanizmini kuchaytirish.**

Intellektual mulk obyektlariga oid litsenziya, mualliflik buyurtmasi, franchayzing, tijorat siri va boshqa shartnomalarda nizolar yuzaga kelganda sudga murojaat qilishdan oldin mediatsiyadan foydalanish imkoniyatini nazarda tutuvchi **mediatsiya (mediatsion) shartini** kiritish amaliyotini rivojlantirish taklif etiladi.

2. **Intellektual mulk nizolarida maxsus tayyorgarlikka ega mediatorlar institutini joriy etish.**

Intellektual mulk nizolarining texnik va huquqiy murakkabligini hisobga olib, mediatorlarning intellektual mulk huquqi bo‘yicha maxsus bilim va malakasiga qo‘yiladigan talablarni belgilash hamda tegishli mediatorlar reyestrida ushbu ixtisoslashuvni alohida ko‘rsatish maqsadga muvofiq.

3. Mediatsiya kelishuvining intellektual mulk obyektlariga nisbatan huquqiy oqibatlarini aniqlashtirish.

Agar mediatsiya natijasida litsenziya berish, litsenziya shartlarini o‘zgartirish, royalti miqdorini belgilash, mualliflik haqini to‘lash yoki intellektual mulkdan foydalanishni to‘xtatish to‘g‘risida kelishuvga erishilsa, bunday kelishuvning tegishli davlat reyestrida qayd etilishi lozim bo‘lgan hollardagi huquqiy oqibatlarini aniq belgilash taklif etiladi.

4. **Intellektual mulk huquqlarini buzish bilan bog‘liq nizolarda mediatsiya predmetini aniqlashtirish.**

Mediatsiya orqali huquqbuzarlikni to‘xtatish, kompensatsiya yoki zarar miqdorini kelishish, litsenziya shartlarini qayta ko‘rib chiqish, kelgusida intellektual mulk obyektidan foydalanish shartlarini belgilash kabi masalalarni hal etish imkoniyatlarini qonunchilikda aniq ifodalash taklif etiladi.

5. **Mediatsiya kelishuvini bajarmaslikning intellektual mulkka oid oqibatlarini tartibga solish.**

Mediatsiya kelishuvida intellektual mulk obyektidan foydalanishni to‘xtatish, huquqni qayta rasmiylashtirish yoki to‘lovlarni amalga oshirish nazarda tutilgan bo‘lsa, kelishuvni bajarmagan tarafga nisbatan qo‘llaniladigan huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. .https://static.brandirectory.com/reports/brand-finance-global-500-2026-preview.pdf?utm_source.
2. M.B.Bahramova. Intellektual mulk sohasidagi nizolarni hal etish. O‘quv qo‘llanma. – T.:TDYU nashriyoti, 2022. – 3 b.

3. Масадиков Ш.М. Медиация-альтернативный способ разрешения гражданско-правовых споров. Учебное пособие. – Т., 2010. – С.12-13.
4. Шамликашвили Ц.А. Медиация в вопросах и ответах. — М.: Издательство ООО «Межрегиональный центр управленческого и политического консультирования», 2017. — С.95.
5. Якубова Д.Ш. Организационно-правовые вопросы деятельности медиаторов // Материалы Международной научнопрактической конференции «Наука в современном мире: вопросы теории и практики», Болгария: Издателска Къща «СОРоС», 2020. – 324 с. С. 151-154.
6. Здрок, О. Н. Медиация : пособие / О. Н. Здрок. – Минск : Четыре четверти, 2018. – С.40.
7. Масадиков Ш.М. Медиация-альтернативный способ разрешения гражданско-правовых споров. Учебное пособие. - Т., 2010. В.12-13.
8. Якубова Д.Ш. Медиация – как альтернативный метод разрешения споров. Коммуникативные методы в медиации. //Научный мультитематический журнал «Научные исследования XXI века» № 1 (3) 2020 г. -436 с. С. 291-294.
9. Yakubova D.Sh. Nizolarni hal qilishning muqobil usullari – mediatsiya: nazariya va amaliyot // “O‘zbekistonda sudlar faoliyati va sud hujjatlari ijrosi: uyg‘unligi, bugungi holati va istiqbollari” mavzusidagi respublika ilmiyamaliy onlayn konferensiyasi materiallari to‘plami, Toshkent, TDYU nashriyoti, 2020. – 245 b. B.73-77.
10. Здрок, О. Н. Медиация : пособие / О. Н. Здрок. – Минск : Четыре четверти, 2018. – С.54.
11. O‘zbekiston Respublikasining 03.07.2018 yildagi “Mediatsiya to‘g‘risida” O‘RQ-482-son Qonuni. https://lex.uz/docs/-3805227